

Zokirov Jasur Ergashaliyevich

ISFT instituti bosh mutaxasisi

Tel: +998 94 939 02 20

E-mail: jasurzokirov2023@gmail.com

TA'LIM MENEJMENTINING ZAMONAVIY BOSHQARUVDA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz hozirgi kunda dolzarb hisoblangan ta'lim menejmanti to'g'risida fikr yuritdik va bayon qildik. Bilamizki, Boshqarish vazifasi mohiyatli zaruriy, takrorlanuvchi xarakterli majmui bo'lib, yagona mazmun va maqsadga qaratilgan. Bunda boshqarish faoliyati birbiriga bog'liq va alohida vazifalarni o'z ichiga oladi bunda boshqarish vazifalari rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish, izlash, faollashtirish, hisob-kitob kabi harakatlar orqali amalga oshiriladi. Boshqarish vazifalarini amalga oshirish uchun ta'lim muassasasida boshqarish tizimini tashkil etiladi. Bu asosan boshqarish sub'ekti direktor oliy o'quv yurtlarida esa rektor o'z navbatida boshqarish bo'g'inlarini tashkil etadi. Shu bo'g'inlar orqali u boshqarish ob'ektiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mavjud ob'ekt rivojlanishini tezlashtirishga xizmat qiladi. Yuqorida aytilganidek, boshqarish sub'ektlar faoliyatining harakatlari majmui bo'lib, har xil vazifalarni ado etish hisoblanadi. Ushbularni hisobga olgan holda Ta'lim menejmenti zamonaviy faoliyatda dolzarb va foydali ekanligini yoritib berishga harakat qildik.

Abstract. In this article, we discussed and described the current educational management. We know that the task of management is a set of essential, necessary, repetitive actions aimed at a single purpose and purpose. In this case, management activities include interrelated and separate tasks, in which management tasks are carried out through actions such as planning, regulation, organization, adjustment, coordination, control, stimulation, search, activation, calculation. A management system is established in the educational institution for the implementation of management tasks. This is mainly the subject of management, and in higher educational institutions, the rector, in turn, organizes the management links. Through these links, it affects the control object. This effect serves to accelerate the development of the existing object. As mentioned above, management is a set of activities of the subjects and is the fulfillment of various tasks. Taking these into account, we tried to clarify that Educational Management is relevant and useful in modern activities..

Аннотация. В этой статье мы обсудили и описали современное управление образованием. Мы знаем, что задача управления — это совокупность существенных, необходимых, повторяющихся действий, направленных на единую цель и цель. При этом управленческая деятельность включает в себя взаимосвязанные и отдельные задачи, в которых задачи управления осуществляются посредством таких действий, как планирование, регулирование, организация, корректировка, координация, контроль, стимулирование, поиск, активизация, расчет. Для реализации управленческих задач в образовательном учреждении создается система управления. В основном это предмет управления, а в высших учебных заведениях ректор, в свою очередь, организует управленческие звенья. Через эти связи он воздействует на объект управления. Этот эффект служит ускорению развития существующего объекта. Как уже говорилось выше, управление представляет собой совокупность деятельности субъектов и представляет собой выполнение различных задач. Принимая это во внимание, мы постарались уточнить, что менеджмент в образовании актуален и полезен в современной деятельности.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasi faoliyatini tashkil etish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida har jihatdan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ta'limni boshqarish ta'lim tizimini boshqarishni anglatadi, bunda guruh ta'lim tizimini amalga oshirish uchun tuzilmalarni nazorat qilish, rejalashtirish, strategiya qilish va amalga oshirish uchun inson va moddiy resurslarni birlashtiradi. Ta'lim bilim, ko'nikma, qadriyatlar, e'tiqod, odat va munosabatlarni o'rganish tajribasi bilan jhozlashdir. Ta'lim tizimi ekotizim davlat vazirliklari, kasaba uyushmalari, nizom kengashlari, agentliklar va maktablar kabi ta'lim muassasalaridagi mutaxassislardan iborat. Ta'lim tizimi siyosiy rahbarlar, direktorlar, o'qituvchilar tarkibi, o'qituvchi bo'lmagan xodimlar, ma'muriy xodimlar va boshqa ta'lim sohasidagi mutaxassislardan iborat bo'lib, ularni boyitish va yaxshilash uchun birgalikda ishlaydi. Ta'lim ekotizimining barcha darajalarida boshqaruv talab qilinadi; boshqaruv muassasani rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, ko'rib chiqish, baholash va integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi. Ta'limni boshqarish sohasidagi tadqiqotlar ta'lim va ta'lim natijalari sifatini oshirish uchun ta'lim rahbarlari, ularning izdoshlari va keng jamoatchilik o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni o'rganishi kerak

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalami o'qitish va tarbiyalashga, ulami intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalami umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi hisoblanadi. Shu bois davlat va hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan nomativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim menejmenti –boshqaruv san'ati sifatida. Menejment so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, boshqaruvni tashkil etish, boshqaruv hokimiyati, rahbarlik qilish, rejalashtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish rabi ma'nolarni anglatadi. Menejment ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir.¹ Menejment ishlab chiqarish jarayonida, ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan sharoitda, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish, foydani maksimallashtirishga qaratilgan boisa, u butun bir iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish evaziga jamiyat ehtiyojini qondira oladigan bozor infratuzilmasi elementlari va ularning o'zaro aloqasini ta'minlovchi mexanizmning barqaror ishlashiga, har bir fuqaro, guruh, uyushma, tashkilot va muassasalar manfaatlarini e'tiborga olgan holda, ularni jahon sahnasida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaratilgan boiadi. Menejmentning asosini obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qonunlarga asoslanuvchi huquqiy ilmiylik tashkil etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari mazkur qonunlarni o'rganish va ularning aniq vaziyatlarda namoyon bo'ishini hisobga olgan holda iqtisodiyotni boshqarishning strategiya va taktikasini belgilaydilar.

Ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish omili sifatida samarali boshqaruvni yoMga qo'yish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida sogMom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish dolzarb vazifalar sifatida belgilab berildi. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayoni murakkab va serqirra boMganligi uchun oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishlari bakalavriat bosqichida maktabgacha ta'lim menejmentining nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlarini o'quv fani sifatida o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv rejasi rejalashtirish va ishlab chiqish "o'rganish uchun integratsiyalashgan rejalarni ishlab chiqish, rejalarni baholash, ularni amalga oshirish va o'rganish tajribasi natijalarini" o'z ichiga oladi".[9]. U o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va ko'rib chiqadi, o'quv rejasiga mos keladigan o'qitish va baholash strategiyalarini targ'ib qiladi, maxsus o'quv dasturlarini shakllantiradi, aniq, kuzatilishi mumkin bo'lgan maqsadlarni yaratadi va foydali baholashni ishlab chiqaradi

Hozirgi davrda ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etish vazifalarini muvafTaqqiyali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratishni va joriy etishni

¹ <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3847/4642>

taqozo qiladi. Zero, kuchayib borayotgan integratsion jarayonlar va axborotlar tizimining xalqaro darajaga etib borishi, raqobatning kuchayishi va boshqalar ijtimoiy boshqaruvga boʻlgan munosabatni foydali tomonga keskin oʻzgartiradi va boshqaruv tizimida ijtimoiy oʻzgarishlarga boʻlgan moslashuvni tezlashtiradi.

Zamonaviy boshqaruv tizimida rahbarning murakkab vazifasi, yaʼni davlat, jamoa va shaxsning qiziqishlarini birlashtirishni bilishi lozim. Bundan tashqari u faoliyat samaradorligini oshirish uchun moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirishni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishi maqsadga muvofiqdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan boʻlib, milliy tajribaning tahlili va taʼlim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda moʻljalni toʻgʻri oʻlga bilish nahoratiga ega boʻlgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yoʻnaltirildi.

Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish) — maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish toʻgʻrisidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga taʼsir koʻrsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obʼyekti orasidagi oʻzaro munosabat boʻlib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik sanʼati sirlarini oʻrganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha boʻgʻinlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bogʻliq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qoʻllashga, har bir xodimga va jamoaga taʼsir koʻrsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham Menejment fani bilan chambarchas bogʻliqdir. Oʻzbekistonda Menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV-XV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda "Temur tuzuklari" asarida davlat, qoʻshin va boshqalarni boshqarish sanʼati toʻgʻrisida oʻz qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida toʻplangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy gʻoyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi — amerikalik muhandis va tadqiqotchi F. Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qoʻriqlash, hisobkitob, maʼmuriy)ga boʻlib, boshqarishni 6-guruhga kiritadi. Menejment yoki boshqarishning obʼyekti korxonada faoliyati, uning subʼyekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik koʻrgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar — yollanma boshqaruvchilar — menejerlar shugʻullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi. Menejmentning yuqori (firma strategiyasini ishlab chiqish), oʻrta (ishlab chiqarish, sotish, narx belgilash, mehnatni tashkil qilish), quyi (sex, boʻlim doirasida ishni tashkil qilish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlari bajarilishini boshqarish) boʻgʻinlari bor. Shunga muvofiq holda menejerlar oliy martabali, oʻrta toifadagi va quyi toifadagi menejerlarga boʻlinadi.

Ayrim tadqiqotlar menejment kishilardan nafli samaralar olish sanʼati, deb hisoblaydilar. Mukammal menejmentning xos belgilari: faoliyatga, izlanishga tarafdorlik; oddiy tuzilma va kamsonli xodimlar; isteʼmolchiga yaqinlik; unumdorlikni taʼminlashda insonning hal qiluvchi oʻrni; tadbirkorlikni ragʻbatlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi; asosiy faoliyat turiga birlamchi eʼtibor; hammadan koʻra yaxshiroq tanish boʻlgan sohaga kirishish; erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qoʻllash.

Menejment nazariyasi va amaliyoti evolyusiyasi turli xil qarashlarda o‘z ifodasini topdi. Masalan, XX asrning 50—60-yillarida asosiy e‘tibor boshqarishning tashkiliy tuzilishiga qaratilgan bo‘lsa, 60—70-yillarda strategik rejalashtirishdan strategik boshqarishga o‘tish davri bo‘ldi.

XX asrning o‘rtalariga kelib menejment O‘zbekistonda tez sur‘atlar bilan rivojlandi. 1966-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kibernetika institutining tashkil qilinishi, akademik V. K. Qobulov boshchiligida olib borilgan nazariy, uslubiy, amaliy ilmiy tadqiqot ishlari respublikada M. fanining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Menejment sohasida birinchi tadqiqotlar sinfiy maktablar tomonidan amalga oshirilgan. Birinchi menejerlarni asosan ishlab chiqarish (texnik yondashuv) masalalari tashvishga solgan. Ular o‘z faoliyatlarini ishchilarni moslash masalalariga qaratganlar. Bu maqsadlar uchun ish joyi dizayni ishlab chiqilgan. Turli operatsiyalarga ish vaqti o‘rganilgan va hokazo. O‘sha davrning ko‘pchilik tadqiqotchilari menejment bu san‘at deb tasavvur qilgan. Menejmentni bunday tushunishning sababi hamma xodimlar ham o‘z o‘lchovlari bo‘yicha rahbarlik lavozimiga to‘g‘ri kelmasligidir.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida menejment O‘zbekistonda maxsus fan sifatida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitila boshladi, menejmentga doir tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi, darsliklar yozildi.

ADABIYOTLAR:

1. Buriboyevna A. M. Recommendations for Improving the Quality of Preschool Education through an Assessment System //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. –2022. –T. 1. –No. 5. –C. 297-304.
2. Astanakulova M., Shahina J. TA’LIMDA BOSHQARUV FAOLIYATI VA MENEJMENTNING IJTIMOIIY OMILLARI //Journal of new century innovations. –2023. –T. 28. –No. 5. –C. 73-78.
3. Astanaqulova M. B. MENEJMENT ILMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Educational Research in Universal Sciences. –2023. –T. 2. –No. 9. –C. 111-113.5. Astanakulova M., Hossiyat R. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI MENEJMENTI VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. –2023.
4. Astanaqulova M. B. MENEJMENTNING KELAJAKKA YO‘NALTIRILGANLIGI //Educational Research in Universal Sciences. –2023. –T.2. –No. 9. –C. 95-98.
5. Астанақулова М.Б. ЭКОЛОГИКУЙИНЛАРОРҚАЛИМ МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ КОГНИТИВ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.026>
6. Астанақулова Манзура Бўрибоевна, Мактабгача таълим назарияси кафедраси ўқитувчиси, Термиз давлат педагогика институти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2022. –No. 10. –C. 220-224.8